



## AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 4 Issue 07 | pp. 136-142 | ISSN: 2181-1865  
Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

### TIJORAT BANKLARIDA XARAJATLARNING KLASSIFIKASIYASI BO'YICHA TAHLILI (ATB "O'zsanoatqurilishbank" misoldida)



**Bozorova Hilola Gaybullayevna**

O'zbekiston Respublikasi Bank-Moliya Akademiyasi,  
magistratura tinglovchisi

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada tijorat banklarida xarajatlarning asosiy turlari, ularning tasnifi, va ular bilan bog'liq jarayonlarning muhim jihatlari ko'rib chiqildi. Shuningdek, xarajatlarni optimallashtirish va bank faoliyatining samaradorligini oshirishga qaratilgan takliflar ishlab chiqildi. Tijorat banklarida xarajatlarning klassifikasiyasi bo'yicha tahlil qilish, bank faoliyatini yanada samarali boshqarish va resurslardan oqilona foydalanish maqsadida amalga oshiriladi. Ushbu mavzu bo'yicha mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy-nazariy yondashuvlari turli nuqtai nazarlardan tahlil qilingan bo'lib, ular orasida bank moliyasining nazariy asoslari, amaliy tajribalar va innovatsion yondashuvlar mavjudligi o'rnatildi.

**Kalit so'zlar:** moliyaviy hisobot, bank xarajatlari, foizli xarajatlar, operatsion xarajatlari, rentabellik, moliyaviy natijalar, moliyaviy barqarorlik, strategiya.

**Аннотация.** В данной статье рассмотрены основные виды расходов в коммерческих банках, их классификация, важные аспекты связанных с ними процессов. Также разработаны предложения, направленные на оптимизацию расходов и повышение эффективности работы банка. Проводится в коммерческих банках с целью анализа классификаций расходов, более эффективного управления банковской деятельностью и рационального использования ресурсов. С разных точек зрения были проанализированы научно-теоретические подходы отечественных и зарубежных ученых по данной теме, среди которых были изучены теоретические основы банковского финансирования, практический опыт и инновационные подходы.

**Ключевые слова:** финансовая отчетность, банковские расходы, процентные расходы, операционные расходы, рентабельность, финансовые результаты, финансовая устойчивость, стратегия.

**Annotation.** This article discusses the main types of expenses in commercial banks, their classification, and important aspects of related processes. Suggestions have also been developed to optimize the expenses and improve the efficiency of the bank. Conducted in commercial banks to analyze the cost classifications, better management of banking activities and rational use of resources. Scientific and theoretical approaches of domestic and foreign scientists on this topic have been analyzed from different points of view,

among which the theoretical foundations of bank financing, practical experience and innovative approaches have been studied.

**Keywords:** financial reporting, bank expenses, interest expenses, operating expenses, profitability, financial results, financial stability, strategy.

### Kirish.

Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligi va ularning bozor raqobatbardoshligini ta'minlashda xarajatlarni to'g'ri boshqarish va ularning klassifikatsiyasi muhim rol o'ynaydi. Bank faoliyati davomida turli xarajatlar yuzaga keladi, ular bankning rentabelligiga va moliyaviy natijalariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Xarajatlarni aniq tasniflash va tahlil qilish bank rahbariyatiga samarali moliyaviy boshqaruvni tashkil etish, resurslarni oqilona taqsimlash va strategik qarorlar qabul qilishda yordam beradi. Tijorat banklarining xarajatlari turli omillarga bog'liq bo'lib, ular nafaqat bankning ichki faoliyati, balki iqtisodiy sharoitlar, raqobat muhiti va davlatning moliyaviy siyosatiga ham bog'liq. Shu sababli, buxgalteriya balansida xarajatlarni to'g'ri tasniflash va ularni tahlil qilish, bankning moliyaviy barqarorligi va rivojlanish strategiyasini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

### Adabiyotlar sharhi.

Tijorat banklarida bank xarajatlarini tasniflashga oid bir qator mahalliy olimlarning ilmiy-nazariy yondashuvlarida izohlab berilgan. O'zbekistonda iqtisodchi olimlar, masalan, A. Axmedov va M. Xolbo'taevlar, tijorat banklari xarajatlarini tasniflash va tahlil qilishda milliy iqtisodiy sharoitlarni hisobga olish zarurligini ta'kidlaydilar. Ularning tadqiqotlarida asosiy urg'u milliy moliyaviy tizimning xususiyatlariga moslashtirilgan xarajatlarni boshqarish usullari va tasniflash mezonlariga berilgan. X. Qodirov va Sh. Turg'unovlar, bank xarajatlarini tasniflash jarayonida risklarni boshqarish va soliqlarni optimallashtirish bo'yicha tadqiqotlar olib borishgan. Ularning yondashuvlari asosan bankning xarajatlarini moliyaviy risklar, soliq imtiyozlari va bank faoliyatidagi barqarorlikni ta'minlash bilan bog'laydi. O'zbekistondagi banklar uchun zamonaviy texnologiyalar va innovatsion yondashuvlar haqida ilmiy ishlar olib boruvchi olimlar, masalan, N. Karimov, tijorat banklarining xarajatlarni tasniflashida IT texnologiyalarini joriy etish orqali samaradorlikni oshirishni taklif etadilar.

Bu jarayonda xorijiy olimlarning ilmiy-nazariy yondashuvlari ham mavjud bo'lib, B. Needles va M. Powers, banklarda xarajatlarni tasniflash va tahlil qilishda xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga (IFRS) muvofiq yondashishni taklif qiladilar. Ularning tadqiqotlarida xarajatlarni operatsion, moliyaviy va investitsion turlarga ajratish va bu orqali bank faoliyatining shaffofligini ta'minlash yoritilgan. R. Kaplan va D. Norton, xarajatlarni tasniflash orqali banklarning raqobatbardoshligini oshirish uchun balanslangan ko'rsatkichlar tizimini (Balanced Scorecard) qo'llashni taklif qiladilar. Bu yondashuv xarajatlarni boshqarish jarayonida strategik maqsadlarga erishishni asosiy omil sifatida ko'rsatadi. Mashhur iqtisodchilar J. M. Keynes va M. Friedmanning nazariy yondashuvlari xarajatlarni optimallashtirish va tejamkorlikni moliyaviy barqarorlikni ta'minlash vositasi sifatida ko'rsatadi. Ular xarajatlarni tahlil qilishda asosan moliyaviy oqimlarni boshqarish va keraksiz xarajatlarni kamaytirishga urg'u beradilar.

Ushbu ilmiy-nazariy yondashuvlar tijorat banklarida xarajatlarni to'g'ri klassifikatsiya qilish va tahlil qilishning bankning umumiy moliyaviy samaradorligiga qanday ta'sir ko'rsatishini yanada chuqurroq tushunishga yordam beradi. Mahalliy va xorijiy yondashuvlarning integratsiyasi bank tizimining rivojlanishini tezlashtiradi va uning raqobatbardoshligini oshiradi.

### Tahlil va natijalar.

Tijorat banklarida xarajatlarning klassifikasiyasi bo'yicha tahlil bank faoliyatining samaradorligini oshirish, moliyaviy holatini tahlil qilish va xarajatlarni optimallashtirish uchun muhim ahamiyatga ega. Ushbu tahlil bankning moliyaviy hisobotlarini to'g'ri yuritish, resurslarni oqilona taqsimlash va xarajatlarni boshqarish strategiyalarini ishlab chiqishga yordam beradi.

1-jadval.

### Xarajatlarning asosiy turlari

Operatsion xarajatlar (Opex)	Moliyaviy xarajatlar (Capex)	Qo'shimcha xarajatlar
Ma'muriy xarajatlar: Bank binolarini ijaraga olish, kommunal to'lovlar, ofis materiallari, sug'urta, xavfsizlik, texnik xizmat ko'rsatish.	Foiz xarajatlari: Mijozlarga to'lanadigan foizlar, bank qarzlari bo'yicha foiz to'lovleri.	Kredit xavfini boshqarish xarajatlar: Kreditlar bilan bog'liq xavflarni kamaytirish uchun sarflangan mablag'lar, shu jumladan kredit sug'urtasi va zararni qoplash uchun ajratmalar.
Xodimlarga to'lanadigan xarajatlar: Ish haqi, bonuslar, sug'urta to'lovleri, pensiya fondiga ajratmalar.	Investitsiya xarajatlari: Asosiy vositalarni sotib olish yoki modernizatsiya qilish (masalan, yangi texnologiyalar joriy etish, bank binolarini rekonstruktsiya qilish).	Moliyaviy vositalarni boshqarish bilan bog'liq xarajatlar: Valyuta ayirboshlash, likvidlikni boshqarish bilan bog'liq xarajatlar.
Marketing va reklama xarajatlari: Bank xizmatlarini targ'ib qilish, reklama, ommaviy axborot vositalarida e'lonlar, aksiyalar.	Amortizatsiya xarajatlari: Asosiy vositalarning yillar davomida qiymatini yo'qotishi.	

Tijorat banklarida xarajatlarni klassifikatsiyalash alohida ahamiyatga ega bo'lib hisoblanadi. Moliyaviy boshqaruvi samarali tashkil qilish. Xarajatlarni to'g'ri klassifikatsiyalash bank rahbariyatiga moliyaviy resurslarni qayerda samaraliroq foydalanish mumkinligini aniqlashga yordam beradi. Rentabellik tahlili. Bank faoliyatidagi har bir xizmat yoki mahsulotning rentabelligini tahlil qilish uchun

xarajatlarni to'g'ri guruhlash zarur. Bu bankning moliyaviy natijalarini yaxshilashga qaratilgan strategiyalarni ishlab chiqishga imkon beradi. Xarajatlarni optimallashtirish. Xarajatlarni tahlil qilish ularning samaradorligini baholash va keraksiz xarajatlarni qisqartirish imkonini beradi. Bu esa bankning umumiy rentabelligini oshirishga yordam beradi. Soliq hisobi. Xarajatlarning to'g'ri klassifikatsiyasi soliq solinadigan bazani aniq hisoblashga va soliqlarni to'g'ri hisoblashga imkon beradi.

Xarajatlarni tahlil qilish natijalari. Kam rentabelli yo'naliishlarni aniqlash. Tahlil natijasida yuqori xarajatlar bilan tavsiflanadigan, ammo kam rentabelli yo'naliishlar aniqlanadi va ularni optimallashtirish choralar ko'rildi. Tejamkorlik imkoniyatlarini aniqlash. Xarajatlarni boshqarish va tejamkorlikka erishish uchun zarur bo'lgan o'zgartirishlar kiritiladi. Samarali strategiyalarni ishlab chiqish. Bankning operatsion va moliyaviy samaradorligini oshirishga qaratilgan strategik qarorlar qabul qilinadi.

Tijorat banklarining xarajatlarini to'g'ri klassifikatsiya qilish va tahlil qilish bankning umumiy moliyaviy samaradorligini oshirish uchun muhim ahamiyatga ega. Xarajatlarni to'g'ri tasniflash nafaqat bank faoliyatini moliyaviy jihatdan boshqarishni soddalashtiradi, balki resurslarni oqilona taqsimlashga va moliyaviy natijalarga ijobjiy ta'sir ko'rsatadigan strategik qarorlar qabul qilishga yordam beradi.

Biz tadqiqot jarayonida "O'zsanoatqurilishbank" ATB misolida xarajatlarning tarkibi va klassifikatsiyalarini tahlilini amalga oshirdik.

1-jadval

#### "O'zsanoatqurilishbank" ATBning foizli xarajatlari, mlrd.so'm hisobida<sup>1</sup>

Nº	Ko'rsatkichlar	2023 yil	2024 yil	O'zgarish, % da
1	Talab qilib olinadigan depozit	65,4	9,6	17,3
2	Jamg'arma depozitlari	150,6	45,4	113,9
3	Muddatli depozitlar	531,2	875,0	112
4	Boshqa banklarga to'langan foizlar	69,7	7,4	93,3
5	Boshqa qarz mablag'larga foizlar	1671,2	2558,8	151,7
6	Boshqa foizli xarajatlar	3,5	0,3	8,6
	Jami: foizli xarajatlar	3349	3809	113,8

"O'zsanoatqurilishbank" ATBning 2022-2023 yillardagi foizli xarajatlari tahlili bankning moliyaviy ko'rsatkichlari barqarorligini va faoliyati samaradorligini aniqlashda muhim o'rinn tutadi. Ushbu davrda bankning foizli xarajatlari, asosan, jalb qilingan mablag'lar va kreditlar bo'yicha to'langan foizlar bilan bog'liq bo'lib, ular bankning daromad va xarajatlari balansi hamda umumiy moliyaviy natijalariga sezilarli ta'sir ko'rsatgan.

2022-yilda bankning foizli xarajatlari muayyan darajada o'sish tendensiyasini ko'rsatgan bo'lsa, 2023-yilda ushbu xarajatlarning o'zgarishi moliyaviy bozorlardagi sharoitlarga, o'zaro kelishuvlar va boshqaruv qarorlariga bog'liq bo'lgan. Ushbu

<sup>1</sup> <https://www.sqb.uz/uz/for-investors/reports-and-presentations-uz/> asosida muallif ishlanmasi

ko'rsatkichlar bankning moliyaviy barqarorligini saqlab qolish va kelgusida rentabellikni oshirishda muhim bo'lib, ular jalb qilingan mablag'larning samarali boshqarilishi va foyda marjasи bilan bog'liq holda batafsil tahlil qilinishi lozim.

Shu bilan birga, 2022-2023 yillardagi foizli xarajatlarning miqdori, milliard so'm hisobida, bankning umumiy moliyaviy ko'rsatkichlari va daromad keltiruvchi operatsiyalarning natijalariga ta'sir ko'rsatgani, foizlar bo'yicha to'lovlarining samaradorligini tahlil qilish imkonini beradi. Bank bu yillarda foizli xarajatlarni optimallashtirish va o'z moliyaviy resurslarini yanada samarali boshqarishga harakat qilgan.

#### "O'zsanoatqurilishbank" ATB ning operatsion xarajatlari, mlrd.so'm<sup>2</sup>

Nº	Ko'rsatkichlar	2023 yil	2024 yil	O'zgarish, % da
1	Ish haqi va xodimlarga oid boshqa xarajatlar	1911,8	1764,7	88,8
2	Ijara va ta'minot xarajatlar	665,1	618,7	93
3	Transport va xizmat safari xarajatlari	93,3	70,0	125,3
4	Ma'muriy xarajatlar	457,5	422,6	89,9
5	Asosiy vositalar eskirishi	399,9	348,4	103,2
6	Nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi	12,9	16,0	124
7	Sug'urta, soliq va boshqa to'lovlar xarajatlari	444,4	394,5	88,8
8	Ehimoliy zararlarga qarshi shakllantirilgan zahira	0,1	117,1	111,8
9	Boshqa operatsion xarajatlar	256,3	178,6	69,7
Jami: operatsion xarajatlar		4561,4	4148,8	90,9

"O'zsanoatqurilishbank" ATB ning 2022-2023 yillardagi operatsion xarajatlari bankning kundalik faoliyati va uning samaradorligini baholashda muhim ahamiyatga ega. Ushbu davrda bankning operatsion xarajatlari, asosan, xodimlar maoshi, texnologik xizmatlar, ijalar, ma'muriy xarajatlar, va boshqa umumiy xarajatlar bilan bog'liq bo'lib, ular bankning moliyaviy barqarorligini saqlashda va faoliyat ko'lagini oshirishda asosiy omillar sifatida ko'rildi.

2022-yilda bankning operatsion xarajatlari pandemiyadan keyingi davrda bankning qayta tiklanish jarayonlari bilan uzviy bog'liq bo'lgan. Ushbu xarajatlar bankning ichki infratuzilmasini mustahkamlash, texnologik yangilanishlar va xodimlarni malakasini oshirish kabi omillar bilan ham tavsiflanadi. 2023-yilda esa operatsion xarajatlar bankning

<sup>2</sup> <https://www.sqb.uz/uz/for-investors/reports-and-presentations-uz/> asosida muallif ishlanmasi

kengaytirish rejalarini va yangi bozorlar bilan ishslashga yo'naltirilgan bo'lib, bunda xarajatlarning optimallashtirilishi va samaradorligi ustuvor ahamiyat kasb etgan.

Bu davrda operatsion xarajatlarning milliard so'm hisobidagi o'sishi bankning rivojlanish strategiyasining bir qismi sifatida qaralishi mumkin, lekin shu bilan birga, xarajatlarni samarali boshqarish orqali bankning daromadliligi va umumiyligi moliyaviy natijalari ijobjiy yo'nalishda bo'lishi kerak edi. Bu esa bankning ichki boshqaruv tizimi va resurslarni ratsional taqsimlashga bo'lган e'tiborini ko'rsatadi.

### **Xulosa.**

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib, tijorat banklarida bank xarajatlarini tasniflashning amaliy jihatlari quyidagilarda ko'zda tashlanadi. Xarajatlarni aniq guruhlash. Bankning moliyaviy hisobotida xarajatlar aniq va to'g'ri guruhlanishi kerak. Operatsion, moliyaviy va investitsion xarajatlar kabi asosiy turlarga ajratish bank rahbariyatiga har bir xarajat turini alohida tahlil qilish va boshqarish imkonini beradi. Moliyaviy hisobotning shaffofligi. Xarajatlarni to'g'ri klassifikatsiya qilish moliyaviy hisobotning shaffofligini ta'minlaydi. Bu esa nafaqat bank ichidagi rahbarlar, balki aksiyadorlar, investorlar va davlat organlari uchun ham muhimdir.

Risklarni boshqarish. Xarajatlarni tahlil qilish jarayonida bankning moliyaviy risklarini aniqlash va boshqarish imkoniyati oshadi. Masalan, foiz to'lovlar yoki kredit bo'yicha xavflarni to'g'ri baholash bankning moliyaviy barqarorligini ta'minlashga yordam beradi. Xarajatlarni kamaytirish imkoniyatlari. Xarajatlarni tasniflash orqali bank rahbariyati keraksiz yoki ortiqcha xarajatlarni aniqlash va ularni qisqartirish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqishi mumkin. Bu esa bankning operatsion samaradorligini oshiradi. Soliq solish tizimini optimallashtirish. Xarajatlarni to'g'ri klassifikatsiya qilish soliq solinadigan bazani to'g'ri hisoblash va soliqlardan samarali foydalanishga imkon beradi.

Tijorat banklar xarajatlarini to'g'ri klassifikatsiya qilish bankning umumiyligi moliyaviy samaradorligiga quyidagicha ta'sir qilishi mumkin:

- Rentabellikni oshirish. Xarajatlarni to'g'ri klassifikatsiya qilish bankning har bir faoliyat yo'nalishi bo'yicha rentabellikni aniq baholashga yordam beradi. Natijada, bank rahbariyati yuqori rentabellikka ega yo'nalishlarni rivojlantirish va past rentabellikli yo'nalishlarni optimallashtirish bo'yicha qarorlar qabul qilishi mumkin.
- Qaror qabul qilishning samaradorligi. Xarajatlar tahlili moliyaviy rejalar va strategik qarorlar qabul qilish jarayonini soddalashtiradi. Bank rahbariyati xarajatlarning tahliliga asoslanib, moliyaviy resurslarni qayerda va qanday yo'naltirish kerakligini aniqlay oladi.
- Barqarorlikni ta'minlash. Moliyaviy barqarorlik bank faoliyatida muhim rol o'ynaydi. Xarajatlarni to'g'ri tasniflash va tahlil qilish bankning uzoq muddatli moliyaviy barqarorligini ta'minlaydi, chunki bu resurslarni samarali boshqarishga, risklarni kamaytirishga va moliyaviy oqimlarni optimallashtirishga yordam beradi.
- Investitsiya salohiyatini oshirish. Bankning xarajatlari to'g'ri klassifikatsiya qilingan va tahlil qilingan holda, investorlar va aksiyadorlar uchun bankning moliyaviy holati yanada shaffof bo'ladi. Bu esa yangi investitsiyalar jalb qilish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Xulosa qilib aytganda, tijorat banklarida xarajatlarni to'g'ri klassifikatsiya qilish va tahlil qilish nafaqat moliyaviy boshqaruvning muhim vositasi, balki bankning umumiy moliyaviy samaradorligini oshirish va uning bozor raqobatbardoshligini mustahkamlash uchun zaruriy shartdir. Bu jarayon bank faoliyatining turli yo'nalishlarida samaradorlikni oshirish va moliyaviy natijalarni yaxshilashga qaratilgan strategik qarorlar qabul qilish imkonini beradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. <https://www.sqb.uz/uz/for-investors/reports-and-presentations-uz/>
2. <http://interfinance.tfi.uz/wp-content/uploads/2023/03/14S.Djumanov.pdf>
3. <file:///C:/Users/user/Downloads/kontseptualnye-osnovy-issledovaniya-ekonomiceskogo-soderzhaniya-finansovoy-ustoychivosti-bankovskoy-sistemy.pdf>
4. [http://www.fa.ru/org/div/uank/autorefs/Documents/2013\\_05/92.pdf](http://www.fa.ru/org/div/uank/autorefs/Documents/2013_05/92.pdf)
5. <https://www.dissercat.com/content/vnutrennii-kontrol-raskhodov-kommercheskogo-banka>
6. [file:///C:/Users/user/Downloads/kontseptualnye-osnovy-formirovaniya-effektivnogo-bankovskogo-nadzora-v-sovremennyh-usloviyah-razvitiya%20\(1\).pdf](file:///C:/Users/user/Downloads/kontseptualnye-osnovy-formirovaniya-effektivnogo-bankovskogo-nadzora-v-sovremennyh-usloviyah-razvitiya%20(1).pdf)
7. Gurrea-Martínez, A., Remolina, N. The Dark Side of Implementing Basel Capital Requirements: Theory, Evidence, and Policy, Journal of International Economic Law, 2019. – 22. – 125–152.
8. Батырева С. В. Современные надзорные и контрольные функции центральных банков: монография. М., 2011. – С. 17.
9. Тихомиров Ю. А. Публичное право. М., 1995. – С. 60.
10. Мюллер Х. Й. О банковском надзоре в странах с рыночной ориентацией / Х.Й. Мюллер // Деньги и кредит, 1990. – № 3. – С. 55.
11. Loipersberger, F. The effect of supranational banking supervision on the financial sector: Event study evidence from Europe, Journal of Banking & Finance, Vol. 91, June 2018, pp. 34–48.
12. Симановский А. Ю. Базельские принципы эффективного банковского надзора и их реализация в России / А.Ю. Симановский // Деньги и кредит, 2001. – 31 марта.
13. Трохов М.Е. Банковский надзор и контроль в стратегии развития банковского сектора : дисс. ... канд. экон. наук: 08.00.10 – Финансы, денежное обращение и кредит / М., 2007. – 127 с.. – С.34.
14. Никитина Т.В. Теория и методология банковского надзора в условиях финансовой глобализации : автореф. дис. ... доктора экон. наук: 08.00.10 – Финансы, денежное обращение и кредит / СПб., 2008. – 45 с.. – С.29.

Copyright: © 2024 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution-4.0 International License (CC - BY 4.0)

